



TOG‘-KON SANOATI, GEOLOGIYA VA MINERAL
RESURSLAR SOHALARIDA KASBIY
MALAKALARNI RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA
TARMOQ KENGASHI

KASBIY STANDART

**FOYDALI QAZILMALARNI FLOTATSIYA
USULIDA BOYITISH**



“Foydali qazilmalarni flotatsiya usulida boyitish” kasbiy standarti 2025-yil 18-dekabrda Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha Respublika kengashi majlisining 114-son bayoni bilan tasdiqlangan “Kasbiy standart shakli” hamda Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti direktorining 2025-yil 19-dekabrda 55-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Kasbiy standartlarni ishlab chiqish va yangilash metodologiyasi”ga muvofiq, Tog‘-kon sanoati, geologiya va mineral resurslar sohalarida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha tarmoq kengashi tomonidan ishlab chiqilgan.

KASBIY STANDART

Foydali qazilmalarni flotatsiya usulida boyitish

Reyestr raqami:

UZ-KS-2026-T1.0-0028



I. Umumiy ma'lumotlar

1. Kasbiy standartning qo'llanilish sohasi: ushbu kasbiy standart "Reagentlarni dozalovchi", "Reagentlarni erituvchi", "Filtrlovchi" va "Flotator (flotatorchi)" kasblari bo'yicha xodimlarga malaka talablarini belgilash, ularning malakasini mustaqil baholash, ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, shuningdek, tashkilotlarda inson resurslarini boshqarish sohasi va boshqa faoliyat yo'nalishlarida keng turda qo'llaniladi.

2. Ushbu kasbiy standartda quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan, o'rganilgan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

bo'tananing zichligi – bo'tana tarkibidagi qattiq zarralarning miqdorini ko'rsatuvchi atama;

drenajlash – donali mahsulotlardan suvli og'irlik kuchi ta'sirida suvsizlantiruvchi mahsulot va g'ovak to'siq orqali tabiiy filtrlanish;

filtrlash – mayda zarrali bo'tana va suspenziyalar tarkibidagi qattiq zarralarni g'ovak to'siq orqali bosim ostida filtrlab, suvni ajratib olish;

flotatsiya – mineral zarralar yuzasining fizik-kimyoviy xossalardagi farqiga asoslanib boyitish usuli;

foydali qazilma – mavjud texnik-iqtisodiy sharoitda xalq xo'jaligida yetarli samara bilan ishlatilishi mumkin bo'lgan tabiiy mineral moddalar;

foydali qazilmalarni boyitish – minerallarning o'zgarishlari bilan bog'liq bo'lmagan mexanik qayta ishlash;

g'alvir – dastlabki mahsulotini elovchi yuzada yirikligi bo'yicha ikki yoki undan ortiq sinflarga bo'lish uchun mo'ljallangan uskuna;

g'alvirlash – elaklovchi yuzalarda mahsulotlarni yirikligi bo'yicha sinflarga ajratish jarayonidir;

gidrosiklonlar – bo'tananing aylanma harakati natijasida hosil bo'ladigan markazdan qochma maydonda, mayda yanchilgan mahsulotlarning gidravlik tasniflanishi uchun mo'ljallangan uskuna;

ho'llanish – mineral zarralar yuzasining suv molekulari bilan molekulyar tortishish kuchi ta'sirida o'zaro birikish hodisasi;

informal ta'lim – aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgan hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga olgan ta'lim shakli;

iqtisodiy faoliyat turi – savdo uchun mo'ljallangan mahsulot ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) maqsadida u yoki bu turdagi resurslarni (uskunalar, mehnat, texnologiya va boshqalar) birlashtirishga asoslangan ishlab chiqarish jarayoni;

kasb xaritasi – kasb nomi, mehnat funksiyalari tavsifi, kasbga qo'yiladigan asosiy xususiyatlar va talablarni o'z ichiga olgan muayyan kasb to'g'risidagi tizimlashtirilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan kasbiy standartning tarkibiy elementi;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan funksiyalar va vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kasbiy standartlar reyestri – bu kasbiy standartlarning nomi, qamrab olingan kasblar, uni qabul qilishga oid qaror (buyruq) rekvizitlari hamda amal qilish muddatini o'z ichiga olgan tizimlashtirilgan ro'yxat;

ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

konsentrat – boyitilgan ruda;

maydalagichlar – rudalarni maydalashni amalga oshiradigan apparatlar;

maydalash – ruda bo'laklarining o'lchamlarini tashqi kuch ta'sirida kichraytirish;

mehnat funksiyasi – kasbiy faoliyat doirasida xodim tomonidan belgilangan natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan mehnat vazifalari majmui;

mehnat harakatlari – xodimning mehnat predmeti bilan o'zaro ta'sirida muayyan mehnat natijasiga erishiladigan jarayon;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

norasmiy ta'lim – ta'lim xizmatlari taqdim etilishini ta'minlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo'naltirilgan va rejalashtirilgan, shaxsni butun hayoti davomida o'qitishdagi rasmiy ta'limga qo'shimcha va (yoki) uning muqobil shakli;

quyiltirish – bo'tana tarkibidagi qattiq zarralarni og'irlik kuchi yoki markazdan qochma kuch ta'sirida cho'ktirib, suyuq fazani ajratib olish;

ruda – tarkibida kerakli metallar bo'lgan tog' jinslari;

shlyuz – to'g'ri to'rtburchak kesimiga, uncha katta bo'lmagan qiyalikka ega tarnovcha;

suspenziya – yuqori zichlikdagi mayin zarralarning suv bilan mexanik aralashmasi;

yanchish – foydali qazilmalarni tashqi kuchlar ta'sirida yopiq hajmlarda talab qilinadigan yiriklikkacha kichraytirish yoki minerallarning yuzasini ochish maqsadida amalga oshiriladigan jarayon.

3. Kasbiy standartni ishlab chiqishga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 22-sentabrdagi "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi"gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida" gi O'RQ-410-son qonuni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktabrdagi "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-158-son farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabr "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-436-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-345-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-iyul "O'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslarning mehnatidan foydalanilishi taqiqlangan og'ir ishlarning hamda zararli yoki xavfli mehnat sharoitlaridagi ishlarning ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 290-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 17-iyun "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini tartibga solishga qaratilgan ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 369-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining 2025-yil 18-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi (IFUT-2.1)" O'zMSt 640:2025 94/mst - sonli buyrug'i;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 10-oktabrdagi "Imtiyozli shartlarda pensiyaga chiqish huquqini beruvchi ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar, lavozimlar va ko'rsatkichlarning ro'yxatini hamda ushbu ro'yxatga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 637-son qarori;

Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori (MMK-2025), O'zMSt 641:2025;

4. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi qisqartirishlar qo'llaniladi:

TMR – Tarmoq malakalar ramkasi;

IFUT – Iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi;

T/r – tartib raqami.

II. Kasbiy standartning pasporti

| | | | |
|----|--|--|----------------------------------|
| 1. | Kasbiy standartning nomi: | Foydali qazilmalarni flotatsiya usulida boyitish | |
| 2. | Kasbiy faoliyatning asosiy maqsadi: | Rudani kimyoviy va fizik jarayonlar yordamida tarkibidagi qimmatli minerallarni ajratish, ularning sifatini oshirish va maksimal darajada qayta tiklanishini ta'minlash | |
| 3. | IFUT bo'yicha seksiya, bo'lim, guruh, sinf va kichik sinf: | B Seksiyasi Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash; 07 Metall rudalarini qazib olish; 07.2 Rangli metallar rudalarini qazib olish; 07.29 Boshqa rangli metallar rudalarini qazib olish; 07.29.0 Boshqa rangli metallar rudalarini qazib olish. | |
| 4. | Kasbiy standartning qisqacha mazmuni: | Maydalangan rudadan foydali minerallarni flotatsiya jarayoni orqali ajratib olishga qaratilgan ishlab chiqarish faoliyati bo'lib, u flotatsiya uskunalarni boshqarish, reagentlarni qo'llash va jarayon sifatini nazorat qilishni o'z ichiga oladi | |
| 5 | Kasblar ro'yxati va malaka darajasi: | Kasblar kodi va nomi: | TMR dagi malaka darajasi: |
| | | 75420008 Reagentlarni dozalovchi | 2 |
| | | 81121030 Reagentlarni erituvchi | 2 |
| | | 81121007 Filtrllovchi | 3 |
| | | 81121008 Flotator (flotatorchi) | 3 |

III. Kasbiy faoliyat turining funksional xaritasi

| Kasblar | | Mehnat funksiyalari | | Mehnat vazifalari | |
|---------|-------------------------------------|---------------------|--|-------------------|--|
| T/r | Kodi va nomi | Kodi | Nomi | Kodi | Nomi |
| 1 | 75420008 Reagentlarni dozalovchi | A1.2 | Reagent eritmalarini tayyorlash va dozalash jarayonlarini olib borish | A1.01.2 | Reagentlarni uzatish va dozalashga xizmat qiluvchi barcha uskuna hamda mexanizmlarning texnik holatini baholash va ularni ishlab chiqarish jarayoniga tayyorlash |
| | | | | A1.02.2 | Reagentlarni yetkazib berish va dozalash tizimiga kiruvchi uskunalariga muntazam texnik xizmat ko'rsatish |
| | | | | A1.03.2 | Reagent eritmalarini tayyorlash, ularni dozalash va ushbu jarayonlarni texnologik talablar asosida boshqarish |
| 2 | 81121030 Reagentlarni erituvchi | B1.2 | Reagent eritmalarini tayyorlash ishlari | B1.01.2 | Reagentlarni eritish uchun tayyorgarlik va yordamchi ishlarni olib borish |
| | | | | B1.02.2 | Reagentlarni eritish ishlarini tashkil etish |
| 3 | 81121007 Filtrlovchi | D1.3 | Foydali qazilmalarni filtrlash jarayonlarini olib borish | D1.01.3 | Kichik hajmdagi bo'tanalarni filtrlash |
| | | | | D1.02.3 | Uzluksiz ishlovchi vakuum-filtrlarda, diskli filtrlarda va filtr-presslarda filtrlash |
| | | | | D1.03.3 | Avtomatik ishlovchi filtrlarda bo'tanalarni filtrlash |
| | | | | D1.04.3 | Diskli filtrlarda, o'lchov va avtomatik vositalar bilan jihozlangan filtr-presslarda bo'tanalarni filtrlash ishlarini amalga oshirish |
| 4 | 81121008 Flotator (flotatorchi) | E1.3 | Foydali qazilmalarni flotatsiya usulida boyitish ishlarini tashkil etish | E1.01.3 | Ish joyini va uskunalarini ishga tayyorlash |
| | | | | E1.02.3 | Foydali qazilmalarni flotatsiya usulida boyitish uskunalariga xizmat ko'rsatish |
| | | | | E1.03.3 | Foydali qazilmalarni flotatsiya usulida boyitish texnologik jarayonini boshqarish |

| | | |
|--|--|---|
| Kasbning nomi: | Reagentlarni dozalovchi | |
| Mashg'ulot nomining kodi: | 75420 | |
| TMR bo'yicha malaka darajasi: | 2 | |
| Malakani baholashga qo'yiladigan talablar: | Tavsiya etiladi | |
| Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar: | Talab etilmaydi | |
| Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar: | <p>Kamida 18 yoshga to'lgan shaxslar; Dastlabki va davriy tibbiy ko'rikdan o'tgan bo'lishi; Mehnat muhofazasi, sanoat va texnika xavfsizligi, sanoat sanitariyasi me'yoriy talablari, favqulodda vaziyatlar, Aniqlik va yuqori darajadagi mas'uliyat; Ehtiyotkorlik va xavfsizlikka ongli munosabat; Diqqat-e'tibor va texnologik intizom; Texnologik jarayondagi o'zgarishlarga tez moslasha olish; Jamoada ishlash va texnolog ko'rsatmalariga rioya qilish qobiliyati; Jamoaga moslashuvchanlik; O'rganishga tayyorlik;</p> | |
| Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar: | umumiy o'rta ta'lim; tayanch o'rta ta'lim. | |
| Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi: | ish joyida qisqa muddatli o'qitish (instruktaj) yoki qisqa muddatli kurslar yoki amaliy tajriba | |
| Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi: | | |
| Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari: | 2-4 razryadli Reagentlarni dozalovchi | |
| Boshqa kasblar bilan aloqadorligi: | TMR bo'yicha malaka darajasi: | Kasbning nomi: |
| | 2 | Reagentlarni erituvchi |
| | 3 | Flotator (flotatorchi) |
| Mehnat funksiyalarining tavsifi | | |
| Kodi va nomi | Mehnat vazifalari | |
| A1.2 - Reagent eritmalarini tayyorlash va dozalash jarayonlarini olib borish | A1.01.2 - Reagentlarni uzatish va dozalashga xizmat qiluvchi barcha uskuna hamda mexanizmlarning texnik holatini baholash va ularni ishlab chiqarish jarayoniga tayyorlash | O'qitish natijalari |
| | | Mehnat harakatlari: |
| | | 1. Smena qabul qilish va topshirish paytida ish joyining holati, xizmat ko'rsatilayotgan uskunalardagi nosozliklar va ularni bartaraf etish bo'yicha ko'rilgan choralar haqida ma'lumot olish |
| | | 2. To'siqlar holatini, ishchi aloqa vositalari, signalizatsiya, blokirovka tizimlari, favqulodda holatda foydalaniladigan asbob-uskunalar, yong'in o'chirish jihozlari va shaxsiy himoya vositalarining to'g'ri ishlashini tekshirish |
| | | 3. To'yintirgichlar, reagent quvurlari, tashuvchi va dozalovchi uskunalarning sozligi hamda ishonchli ekspluatatsion holatini tekshirish |
| | | 4. Reagentlarni avtomatik dozalash mexanizmlari va tizimlarining holatini tekshirish |

| | | |
|--|--|---|
| | | 5. Reagent bo'limidagi konditsionerlar va ventilyatsiya tizimlarining samaradorligi va ishonchligini nazorat qilish |
| | | 6. Ishlab chiqarish vazifalarini bajarish uchun zarur bo'lgan asbob-uskunalar va moslamalarning mavjudligi va to'liqligini tekshirish |
| | | 7. Reagent bo'limidagi asosiy ish joylarida to'kilgan moddalar va changni tozalash |
| | | 8. Reagentlarni turli xil qoplama va saqlash idishlarida qabul qilish, tushirish va omborga saqlash uchun joylashtirish |
| | | Ko'nikmalar: |
| | | Uskunalaridagi agregat va mexanizmlarning nosozliklarini aniqlash |
| | | Nazorat-o'lchov asboblarning o'lchash aniqligini tekshirish |
| | | Reagentlarni avtomatik dozlash tizimlarining butunligi va shikastlanmaganligini tekshirish |
| | | Xizmat ko'rsatilayotgan uskuna tarkibidagi alohida agregat va mexanizmlarda yuzaga kelgan nosozliklarni aniqlash |
| | | Reagentlarni avtomatik dozlash tizimlari faoliyatidagi o'zgarishlar va ishlashdagi nosozliklarni aniqlash |
| | | Foydalanilayotgan uskunalarni xizmat ko'rsatish jarayonida tozalash va rejali ishlarni xavfsiz bajarish |
| | | Avariya holatlarida shaxsiy himoya vositalari, yong'in o'chirish vositalari hamda favqulodda holatlar uchun mo'ljallangan asbob-uskunalaridan to'g'ri foydalanish |
| | | Reagentlar dozirovkasi operatorining ish joyidagi maxsus dasturiy ta'minotdan foydalanish |
| | | Jabrlanganlarga birinchi yordam ko'rsatish |
| | | Bilimlar: |
| | | Reagentlarning vazifasi va xususiyatlari |
| | | Reagent quvurlari sxemasi |
| | | Asosiy va yordamchi uskunalarning tuzilishi, ishlash prinsipi hamda texnik ekspluatatsiya qoidalari |
| | | Asosiy agregatlar va uzellarga texnik xizmat ko'rsatish hamda ekspluatatsiya qilish bo'yicha ishlab chiqarish-texnik yo'riqnomalari |
| | | Reagentlarni hisobga olish va saqlash qoidalari |
| | | Reagentlar konsentratsiyasini aniqlash usullari |
| | | Shartli signalizatsiya tizimlari va xizmat ko'rsatiladigan uskunalarning tuzilishi |
| | | Avtomatik tizimlar yordamida belgilangan dozalanish rejimlarini o'rnatish va hisoblash usullari |
| | | Nazorat-o'lchov asboblarning qo'llanilish tartibi |
| | | Idishlardagi reagentlar sathini o'lchash usullari |
| | | Ish joylarida belgilangan tozalik, yoritish, yong'in xavfsizligi va elektr xavfsizligi talablari |

| | | |
|---|--|--|
| | | Avariylarni lokalizatsiya qilish va oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha tadbirlar rejasi |
| | | Mehnatni muhofaza qilish, sanoat xavfsizligi, ekologik va yong'in xavfsizligi talablari |
| A1.02.2 - Reagentlarni yetkazib berish va dozlash tizimiga kiruvchi uskunalarga muntazam texnik xizmat ko'rsatish | | Shaxsiy himoya vositalaridan, yong'in o'chirish vositalaridan va favqulodda vaziyatlarda asbob-uskunalaridan foydalanish qoidalar |
| | | Jabrlanganlarga birinchi yordam ko'rsatish qoidalar |
| | | Mehnat harakatlari: |
| | | 1. Smenani topshirish vaqtida xizmat ko'rsatilayotgan uskunalarning holati, ishlashdagi nosozliklar va ularni bartaraf etish bo'yicha ko'rilgan choralar haqida ma'lumot olish hamda ma'lumot berish |
| | | 2. Reagentlarni dozalanishini avtomatik boshqarish tizimlari va uskunalariga texnik xizmat ko'rsatish hamda ta'mirlash jarayonida yordamchi ishlarni bajarish |
| | | 3. Reagentlarni dozlash jarayonlarini boshqarish tizimlari va uskunalarini ta'mirlashga tayyorlash |
| | | 4. Ish joylarini chang va to'kilgan materiallarni qo'lda tozalash |
| | | 5. Reagentlarni saqlash idishlari va to'yintirgichlar baklarini erimaydigan cho'kmalardan davriy tozalash |
| | | 6. Ishlab chiqarish vazifalarini bajarish uchun zarur bo'lgan asbob-uskunalar va moslamalarning mavjudligini tekshirish hamda ularni ishga tayyorlash |
| | | 7. Mehnatni muhofaza qilish va yong'in xavfsizligi vositalari holatini, yoritish, ishlab chiqarish signalizatsiyasi, aloqa vositalari holatini, mexanizmlarni to'xtatish va bloklash tizimlarining holatini tekshirish |
| | | 8. Xizmat ko'rsatilayotgan uskunalaridagi nosozliklarni bartaraf etish bo'yicha ta'mirlash ishlarida va ta'mirdan tashqari davriy texnik xizmat ko'rsatishda ishtirok etish |
| | | 9. Uskunalarini moylash |
| | | 10. Reagentlarni dozalanish jarayonlarini boshqarish tizimlari va texnologik uskunalarini ta'mirlash ishlari tugallangandan so'ng qabul qilib olish |
| | | Ko'nikmalar: |
| | | Reagentlar bo'limidagi to'yintirgichlar, reagent quvurlari, tashuvchi, dozalovchi va boshqa mexanizmlarning holati va ishga yaroqliligini vizual tekshirish |
| | | Reagentlarni dozalovchi agregatlar, qismlar va tizimlarda ta'mirlash |
| | Reagentlar bo'limining tashish tizimlaridagi uskuna va moslamalarning ishdan chiqish sabablarini aniqlay olish va bartaraf etish | |

| | | |
|--|---|---|
| | | Ishlab chiqarish va ekologik xavfsizlikni ta'minlovchi apparatlar va qurilmalarning ishonchli ishlashini vizual tekshirish |
| | | Ish o'rnini dasturiy ta'minotidan foydalanish |
| | | Shaxsiy himoya vositalaridan, yong'in o'chirish vositalaridan va favqulodda vaziyatlarda asbob-uskunalaridan foydalanish |
| | | Jabrlanganlarga birinchi yordam ko'rsatish |
| | | Bilimlar: |
| | | Reagentlar bo'limi uskunolari va mexanizmlarining tuzilishi, ishlash prinsipi va ulardan foydalanish qoidalari |
| | | Uskunalaridagi nosozliklarning sabablari va ularni bartaraf etish usullari |
| | | Mexanizmlarni moylash tizimlari, moylash materiallari turlari va ularni qo'llash qoidalari |
| | | Reagentlar bo'limi uskunalaridan foydalanish va texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha ishlab chiqarish-texnik yo'riqnomalar |
| | | Shartli signalizatsiya tizimlari va xizmat ko'rsatiladigan uskunalarining tuzilishi |
| | | Nazorat-o'lchov asboblari tuzilishi va qo'llanilish tartibi |
| | | Reagent bo'limida avariylarni lokalizatsiya qilish va oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha tadbirlar rejasi |
| | | Reagent bo'limida mehnat muhofazasi, sanoat, ekologik va yong'in xavfsizligi talablari |
| | | Reagent dozalovchi ish joyining dasturiy ta'minoti |
| | | Shaxsiy himoya vositalaridan, yong'in o'chirish vositalaridan va favqulodda vaziyatlarda asbob-uskunalaridan foydalanish qoidalari |
| | | Jabrlanganlarga birinchi yordam ko'rsatish qoidalari |
| | | Mehnat harakatlari: |
| | A1.03.2 - Reagent eritmalarini tayyorlash, ularni dozalash va ushbu jarayonlarni texnologik talablar asosida boshqarish | 1. Smenani qabul qilish va topshirishda ishlab chiqarish vazifasi, smena davomida asosiy texnologik jarayonning belgilangan rejimlaridan og'ish holatlari va ko'rilgan choralar haqida ma'lumot olish va berish |
| | | 2. Xizmat ko'rsatiladigan uskunalarining ishga tayyorligini tekshirish |
| | | 3. To'yintirgichlarga, reagent tashuvchi quvurlarga, tashuvchi, dozalovchi va boshqa mexanizmlarga xizmat ko'rsatish hamda ularning uzluksiz ishlashini ta'minlash |
| | | 4. Keltirilgan eritmalar va reagentlarni sarf bochkalariga, ta'minlash nuqtalariga taqsimlash va tashish |
| | | 5. Ko'p komponentli eritmalar va zaharli moddalar eritmalarini tayyorlash va dozalash |
| | | 6. Eritmalar konsentratsiyasi va reagentlar miqdorini nazorat o'lchovlarini o'tkazish |
| | | 7. Reagentlar sarfini hisobga olish |

| | | |
|--|--|--|
| | | 8. Vaqt birligi ichida qayta ishlanayotgan rudaning har bir tonnasi uchun saflanayotgan reagent eritmasi hisobini yuritish |
| | | 9. Eritmalar va reagentlarni belgilangan konsentratsiyada tayyorlash |
| | | 10. Reagentlarni avtosisternalarga quyish |
| | | 11. Sisternalardan kuchli ta'sir qiluvchi zaharli moddalarning to'kilish |
| | | 12. Yuk ko'tarish mashinalari yordamida o'ramli va donador yuklarni tushirish |
| | | 13. Xizmat ko'rsatilayotgan uskunalarning ishlashida nosozliklarni aniqlash va bartaraf etish |
| | | 14. Turli xil idishlar va saqlash sig'imlaridan reagentlarni qabul qilish, tushirish va omborga joylashtirish |
| | | 15. Reagentlarni saqlash sig'imlarida va to'yintirgich baklarida erimay qolgan cho'kindilardan davriy tozalash |
| | | 16. Reagentlar dozalovchi ish joyining jurnalini va hisob hujjatlarini yuritish |
| | | 17. Nazorat-o'lchov asboblari ko'rsatkichlari va idishlardagi reagentlarning nazorat o'lchovlariga asoslangan holda kelib tushgan va jo'natilgan reagentlar hisobini yuritish |
| | | Ko'nikmalar: |
| | | Konveyerlarning ishchi holatida tashilayotgan materiallardan tartib bilan namuna olish |
| | | Ohak bo'tanasi sifatini aniqlash |
| | | Reagentlarni dozalash aniqligini baholash |
| | | Uskunaning parametrlarini sozlash |
| | | Asboblarni ko'rsatkichlarini kuzatib borish |
| | | Reagentlar hisobini yuritish bo'yicha hujjatlarni to'g'ri rasmiylashtirish |
| | | Ish joyida to'siqlar va himoya qoplamalarining sozligini, aloqa vositalari, ishlab chiqarish signalizatsiyasi, jamoaviy va shaxsiy himoya vositalari hamda yong'in o'chirish vositalarining ishchi holatini baholash |
| | | Ish joylarining tozaligi, yoritilganligi, yong'in xavfsizligi va elektr xavfsizligini belgilangan talablarga mosligini baholash |
| | | Shaxsiy himoya vositalaridan, yong'in o'chirish vositalaridan va favqulodda vaziyatlarda qo'llaniladigan asbob-uskunalaridan foydalanish |
| | | Reagent dozalovchi ish joyining dasturiy ta'minotidan foydalanish |
| | | Jabrlanganlarga birinchi yordam ko'rsatish |
| | | Bilimlar: |
| | | Reagentlarning vazifasi va xossalari |
| | | Reagent quvurlari sxemasi va reagentlarni berish nuqtalari |
| | | Reagentlarni hisobga olish va saqlash qoidalari |

| | | |
|---|--|---|
| | | Reagentlar bo'limi apparatlari va mashinalarning tuzilishi, ishlash prinsipi va ekspluatatsiya qilish qoidalari |
| | | Reagentlar bo'limi uskunalarning ishga tushirish moslamalari va avariya o'chirgichlarining blokirovka sxemalari |
| | | Reagentlar konsentratsiyasini aniqlash usullari |
| | | Shartli signalizatsiya va xizmat ko'rsatiladigan uskunalarning tuzilishi |
| | | Avtomatik tizimlar yordamida hisob-kitoblar qilish va belgilangan dozalash rejimlarini o'rnatish usullari |
| | | Nazorat o'lchov asboblardan foydalanish tartibi |
| | | Reagentlar darajasini idishlarda o'lchash usullari |
| | | Ish bajarishda energiya, xom ashyo va materiallar sarfi me'yorlari |
| | | Reagent bo'limida avariylarni lokalizatsiya qilish va oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha tadbirlar rejasi |
| | | Mehnatni muhofaza qilish, sanoat xavfsizligi, ekologik va yong'in xavfsizligi talablari |
| | | Dasturiy ta'minotidan foydalanish |
| | | Shaxsiy himoya vositalaridan, yong'in o'chirish vositalaridan va favqulodda vaziyatlarda asbob-uskunalardan foydalanish qoidalari |
| | | Jabrlanganlarga birinchi yordam ko'rsatish tartibi |
| | | Mas'uliyat va mustaqillik: |
| 2. Mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi talablariga muvofiq ishlarni olib boradi | | |
| 3. Ish qurollari va uskunalarning soz holatda ishlashini ta'minlaydi | | |
| 4. Reagentlarni dozalash uskunalarini soz holatda ishlatadi | | |
| 5. Belgilangan texnologik rejimga muvofiq reagent eritmalarni tayyorlaydi | | |
| 6. Reagentlar to'g'ri tanlaydi va tayyorlaydi | | |
| Texnik va/yoki texnologik talab | Reagentlarni uzatish va dozalash uchun mo'ljallangan dozatorlar, nasoslar, aralashtirgichlar va quvur tizimlarining tuzilishi hamda ishlash prinsipini bilishi zarur; O'lchov va nazorat asboblari bilan ishlay olishi shart; Dozalash uskunalarining texnik holatini tekshirish, sozlash va nosozliklarni aniqlay olishi lozim;Avtomatik va yarim avtomatik dozalash tizimlaridan foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lishi kerak; Texnik hujjatlar, texnologik sxemalar va yo'riqnomalarni o'qiy olishi zarur; Texnologik jarayonlarda qo'llaniladigan reagent turlari, ularning vazifasi va ta'sir mexanizmlarini bilishi shart; Reagentlarni belgilangan me'yor, ketma-ketlik va rejimlarda aniq dozalashi lozim; | |

| | |
|--|--|
| | <p>Jarayon parametrlaridagi o'zgarishlarga qarab reagent sarfini moslashtira olishi zarur;</p> <p>Texnologik ko'rsatkichlarni nazorat qilish va belgilangan me'yorlardan og'ishlarni aniqlay olishi kerak;</p> <p>Mehnat muhofazasi, sanoat va ekologik xavfsizlik talablariga qat'iy rioya qilishi shart;</p> <p>Ish jarayonida hisob-kitoblarni yuritish va texnologik hisobotlarni rasmiylashtira olishi lozim;</p> <p>Dozalash nasoslari: membranali, porshenli va h.k;</p> <p>Mexanik, yarim avtomatik va avtomatik dozatorlar;</p> <p>Reagent eritmalarini tayyorlash va saqlash baklari;</p> <p>Aralashtirgichlar va mikserlar;</p> <p>Quvur tizimlari, klapanlar va armaturalar;</p> <p>Sarf o'lchagichlar: rotametrlar, elektron oqim o'lchagichlar;</p> <p>Sath ko'rsatkichlari va sath datchiklari;</p> <p>Bosim va harorat o'lchash asboblari;</p> <p>Konsentratsiya va pH o'lchagichlar;</p> <p>Avtomatlashtirilgan boshqaruv va nazorat panellari;</p> <p>Filtrlar va reagentlarni tozalash moslamalari;</p> <p>Shaxsiy himoya vositalari: qo'lqop, ko'zoynak, niqob, maxsus kiyim</p> |
|--|--|

| | | |
|---|--|---|
| Kasbning nomi: | Reagentlarni erituvchi | |
| Mashg'ulot nomining kodi: | 81121 | |
| TMR bo'yicha malaka darajasi: | 2 | |
| Malakani baholashga qo'yiladigan talablar: | Tavsiya etiladi | |
| Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar: | Talab etilmaydi | |
| Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar: | <p>Kamida 18 yoshga to'lgan shaxslar; Dastlabki va davriy tibbiy ko'rikdan o'tgan bo'lishi; Mehnat muhofazasi, sanoat va texnika xavfsizligi, sanoat sanitariyasi me'yoriy talablari, favqulodda vaziyatlar, yong'in va elektr xavfsizligi talablari bo'yicha bilimlarni sinovdan o'tgan bo'lishi; Mas'uliyatlilik va aniqlik; Ehtiyotkorlik va xavfsizlikka ongli munosabat; Diqqat-e'tibor va texnologik intizom; Texnologik jarayonlardagi o'zgarishlarga moslasha olish; Jamoada ishlash va rahbar ko'rsatmalariga amal qilish qobiliyati; Kasbiy bilim va ko'nikmalarni doimiy rivojlantirishga intilish.</p> | |
| Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar: | umumiy o'rta ta'lim; tayanch o'rta ta'lim | |
| Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi: | ish joyida qisqa muddatli o'qitish (instruktaj) yoki qisqa muddatli kurslar yoki amaliy tajriba | |
| Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi: | | |
| Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari: | 3-razryadli Reagentlarni erituvchi | |
| Boshqa kasblar bilan aloqadorligi: | TMR bo'yicha malaka darajasi: | Kasbning nomi: |
| | 2 | Reagentlarni dozalovchi |
| | 3 | Flotator (flotatorchi) |
| Mehnat funksiyalarining tavsifi | | |
| Kodi va nomi | Mehnat vazifalari | |
| B1.01.2 - Reagent eritmalarini tayyorlash ishlari | B1.01.2 - Reagentlarni eritish uchun tayyorgarlik va yordamchi ishlarni olib borish | O'qitish natijalari |
| | | Mehnat harakatlari: |
| | | 1. Smenani qabul qilishda va topshirishda ishlab chiqarish topshiriqlari, ish o'rni holati, xizmat ko'rsatiladigan uskunalardagi nosozliklar va ularni bartaraf etish bo'yicha qilingan ishlar bo'yicha ma'lumot olish va ma'lumot berish |
| | | 2. Gazga qarshi niqob, himoya ko'zoynagi, rezina qo'lqop, rezina etik kabi shaxsiy himoya vositalarini tekshirish |
| | | 3. Ovoz signalizatsiyasini ishlashini tekshirish |
| | | 4. Changlarda reagentlar darajasini, me'yorini ko'rsatuvchi yorug'lik signalizatsiyasini tekshirish |
| | | 5. Reagent tayyorlash bo'limiga kirganda shamollatish tizimini ishga tushirish |
| 6. Sexdagi shamollatish tizimining ishlashini tekshirish | | |

| | |
|--|--|
| | <p>7. Reagent aralashmasi yoki quruq reagent kukunlari to'kilmaganligi, ish o'rnini tozaligini tekshirish</p> <p>8. Ish o'rnini tekshirish</p> <p>9. Xizmat ko'rsatadigan mexanizatsiya uskunalari mavjudligi, sozligi va ishga yaroqliligini tekshirish</p> <p>10. Reagentlarni tayyorlashda yordamchi va tayyorgarlik ishlarini bajarish</p> <p>11. Yuqori razryadli ishchilar nazoratida reagent eritmalarini tayyorlash</p> <p>12. Eritmalar konsentratsiyasi aniqlash</p> <p>13. Reagentlarni eritma tayyorlash idishiga nasoslar yordamida haydash va yetkazish</p> <p>14. Xizmat ko'rsatadigan uskunalarining joriy ta'mirlash ishlarida ishtirok etish</p> <p>Ko'nikmalar:</p> <p>Texnologik jarayonlardagi o'zgarishlar va jihozlardagi nosozliklarni tezlik bilan aniqlay olish hamda bartaraf etish</p> <p>Texnik hujjatlarni to'g'ri to'ldirish</p> <p>Ish o'rnining tozaligi, yoritilganligi, yong'in xavfsizligi belgilangan talablarga muvofiqligini vizual tekshirish</p> <p>Shaxsiy himoya vositalari va yong'in xavfsizligi vositalaridan to'g'ri foydalanish</p> <p>Yuqori razryadli ishchi nazoratida rejim xaritasiga asosan reagent tayyorlash texnologik jarayonini olib borish</p> <p>Jabrlanganlarga birinchi yordam ko'rsatish</p> <p>Bilimlar:</p> <p>Uchastkaga keltiriladigan barcha reagentlar xususiyatlari</p> <p>Reagentlar konsentratsiyasidan kelib chiqib reagentlarni eritish tartibi va qoidasi</p> <p>Reagent sarfi normalari va reagentlarni saqlash qoidalari</p> <p>Ksantogenat konsentratsiyasini aniqlash usullari</p> <p>Elektr uskunalarida kelib chiqishi mumkin bo'lgan nosozliklar va ularning kelib chiqish sabablari</p> <p>Aloqa vositalari, sanoat signalizatsiyasi, jamoaviy va shaxsiy himoya vositalari, yong'inga qarshi va gazdan himoya vositalarining qo'llanilishi, ulardan foydalanish va ishga yaroqliligini tekshirish qoidalari</p> <p>Amaldagi asbob-uskunalar, mexanizmlar va qurilmalarning qo'llanilishi, tuzilishi, ishlash tamoyillari, ulardan foydalanish va xizmat ko'rsatish qoidalari</p> <p>Ishlab chiqarish korxonalarida hududlarida harakatlanish qoidalari</p> <p>Jabrlanganlarga birinchi yordam ko'rsatish qoidalari</p> <p>Avariya oqibatlarini oldini olish va bartaraf etish qoidalari</p> |
| B1.02.2 - Reagentlarni eritish ishlarini tashkil etish | <p>Mehnat harakatlari:</p> <p>1. Smenani qabul qilishda va toshirishda ishlab chiqarish topshiriqlari, ish o'rnini holati, xizmat ko'rsatiladigan uskunalaridagi nosozliklar va ularni bartaraf etish bo'yicha qilingan ishlar bo'yicha ma'lumot olish va ma'lumot berish</p> <p>2. Texnologik jarayon uchun kerakli konsentratsiyadagi reagent eritmalarini tayyorlash</p> |

| | |
|-----------------------------------|---|
| | 3. Eritmalar konsentratsiyasini rostdash |
| | 4. Reagent sarfi hisobini yuritish |
| | 5. Reagent eritmalarini dozalash bo'limiga quvurlar orqali yuborish |
| | 6. Qoristirgichlar, aralashtirgichlar, eritkichlar, agitatorlar, ta'minlagichlar, nasoslar va xizmat ko'rsatadigan uskunalar holatini tekshirish va ulardagi nosozliklarni bartaraf etish |
| | 7. Ventilyatorlarning ishlashini kuzatish |
| | 8. Xizmat ko'rsatiladigan uskunaning ishlashidagi nosozliklarni aniqlash va bartaraf etish, ularni ta'mirlashda ishtirok etish |
| | 9. Sarf baklari tubida erimay cho'kib qolgan cho'kindilarni davriy ravishda tozalash |
| | 10. Ish o'rni hisobot hujjatlarini yuritish |
| | 11. Ish jarayonida shaxsiy va jamoaviy himoya vositalaridan foydalanish |
| | Ko'nikmalar: |
| | Reagent sarfi hisobini aniqlay olish |
| | Eritmalar konsentratsiyasini aniqlay olish va rostdash |
| | Rejim xaritasiga muvofiq reagent tayyorlash texnologik jarayonini boshqara olish |
| | Texnologik jarayonlardagi o'zgarishlar va jihozlardagi nosozliklarni tezlik bilan aniqlash hamda bartaraf etish |
| | Texnik hujjatlarni to'g'ri to'ldirish |
| | Jabrlanganlarga birinchi yordam ko'rsatish |
| | Shaxsiy himoya vositalarini, yong'inga qarshi vositalarni qo'llash va favqulodda vaziyatlarda asboblarda foydalanish |
| | Bilimlar: |
| | Foydali qazilmalarni reagent aralashtirgan holda boyitish usullari |
| | Reagentlarning qo'llanilishi va xossalari |
| | Reagentlarni tayyorlash usullari |
| | Reagent eritmalariga qo'yiladigan talablar |
| | Reagentlarni sarflash me'yorlari va ularni saqlash qoidalari |
| | Eritmalar tayyorlash usullari |
| | Korxonalarda o'rnatiladigan signalizatsiyalarni |
| | Reagent uzatish quvurlari sxemasi |
| | Jabrlanganlarga birinchi yordam ko'rsatish qoidalari |
| | Avariya oqibatlarini oldini olish va bartaraf etish qoidalari |
| Mas'uliyat va mustaqillik: | 1. Xavfsizlik talablariga amal qilgan holda ishlarni tashkil etadi |
| | 2. Yong'in haqida xabar beradi va yong'inlarni oldini olish uchun chora ko'radi |
| | 3. Smena boshlig'i tomonidan berilgan naryad-ruxsatnomasi asosida topshiriqlarni xavfsiz va samarali bajarilishini ta'minlaydi |

| | | |
|---|--|---|
| | | 4. Texnologik jarayon uchun kerakli konsentratsiyadagi reagent eritmalarini tayyorlaydi |
| | | 5. Reagentlar sarfi hisobini yuritadi |
| | | 6. Qorishtirgichlar, eritkichlar, agitatorlar, ta'minlagichlar, nasoslar va xizmat ko'rsatadigan uskunalar soz holatda ishlashini ta'minlaydi |
| | | 7. Eritmalar konsentratsiyasini aniqlaydi |
| <p>Texnik va/yoki texnologik talab</p> | | <p>Reagentlarni eritish uchun mo'ljallangan baklar, reaktorlar, aralashtirgichlar va quvur tizimlarining tuzilishi hamda ishlash prinsipini bilishi zarur;</p> <p>Mexanik va elektr aralashtirgichlar, isitish va sovitish moslamalaridan to'g'ri foydalana olishi shart;</p> <p>O'lchov va nazorat asboblari bilan ishlash ko'nikmasiga ega bo'lishi lozim;</p> <p>Uskunalar texnik holatini tekshirish, ishga tayyorlash va mayda nosozliklarni aniqlay olishi kerak;</p> <p>Texnik hujjatlar, texnologik sxemalar va yo'riqnomalarni o'qiy olishi zarur;</p> <p>Reagent eritmalarini belgilangan retseptura, konsentratsiya va ketma-ketlik asosida tayyorlashi shart;</p> <p>Eritish jarayonida harorat, vaqt va aralashtirish rejimlariga rioya qilishi lozim;</p> <p>Tayyor eritmalar sifat ko'rsatkichlarini nazorat qila olishi va me'yordan og'ishlarni aniqlashi zarur;</p> <p>Texnologik jarayon talablariga muvofiq eritmalarini saqlash va uzatishni ta'minlashi kerak;</p> <p>Mehnat muhofazasi, kimyoviy, sanoat va ekologik xavfsizlik talablariga qat'iy amal qilishi shart;</p> <p>Ish jarayonida texnologik ko'rsatkichlarni qayd etish va belgilangan hujjatlarni yurita olishi lozim;</p> <p>Reagent eritmalarini tayyorlash uchun baklar va idishlar;</p> <p>Eritish reaktori;</p> <p>Mexanik va elektr aralashtirgichlar;</p> <p>Isitish va sovitish moslamalari;</p> <p>Quvur tizimlari, klapanlar va armaturalar;</p> <p>O'lchov va nazorat asboblari: harorat o'lchagich, sath ko'rsatkich, pH-metr, konsentratsiya o'lchagich;</p> <p>Nasoslar, filtrlar va tozalash moslamalari;</p> <p>Avtomatlashtirilgan boshqaruv va nazorat panellari;</p> <p>Reagentlarni saqlash uchun konteynerlar va ombor jihozlari;</p> <p>Shaxsiy himoya vositalari: qo'lqop, ko'zoynak, niqob, maxsus kiyim.</p> |

| | | |
|---|---|--|
| Kasbning nomi: | Filtrlovchi | |
| Mashg'ulot nomining kodi: | 81121 | |
| TMR bo'yicha malaka darajasi: | 3 | |
| Malakani baholashga qo'yiladigan talablar | Tavsiya etiladi | |
| Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar: | Talab etilmaydi | |
| Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar: | <p>Kamida 18 yoshga to'lgan shaxslar; Mehnat muhofazasi, sanoat va texnika xavfsizligi, sanoat sanitariyasi me'yoriy talablari, favqulodda vaziyatlar, yong'in va elektr xavfsizligi talablari bo'yicha bilimlarni sinovdan o'tgan bo'lishi; Mas'uliyatlilik va texnologik intizom; Diqqat-e'tibor va aniqlik; Jarayon davomida yuzaga keladigan o'zgarishlarga tez moslasha olish; Jamoada ishlash va rahbar ko'rsatmalariga amal qilish qobiliyati; Xavfsizlikka ongli munosabat va ehtiyotkorlik; Kasbiy bilim va ko'nikmalarni doimiy rivojlantirib borishga intilish.</p> | |
| Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar: | boshlang'ich professional ta'lim; o'rta maxsus ta'lim; | |
| Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi: | umumiy o'rta ta'lim yoki norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba | |
| Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi: | | |
| Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari: | 2-5-razryadli Filtrlovchi | |
| Boshqa kasblar bilan aloqadorligi: | TMR bo'yicha malaka darajasi: | Kasbning nomi: |
